28«10»2022 yil.

310-7-93-OB/2022-son

**ShARTNOMA № 688**

Bulung'ur sh «26» «oktabr» 2022 yil

**"SHARIF PROJECT" MCHJ** keyingi o'rinlarda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi. O'zining nizom, asosida ish yurituvchi rahbar Q.Tog'ayev nomidan, bir tomondan **Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, O'zining nizom, asosida ish yurituvchi raxbar A.Mamarasulov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1.SHARTNOMANING PREDMETI

1. Yetkazib beruvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar (mahsulot) ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Buyurtmachiga o'z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Buyurtmachi esa tovar (mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

| № | Xizmatlar nomi | O'lchov birligi | soni | Narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Elobod maxallaasi ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash va asfalt qoplamasiga aylantirish loyixa va ekspertiza qilish | xizmat | 1 | 23 529 412 | 23 529 412 |
| JAMI: | | | | | **23 529 412** |

1.2.Shartnomaning umumiy summasi **23 529 412 (Yigirma uch million besh yuz yigirma to'qqiz ming to'rt yuz o'n ikki)** so'mni tashkil qiladi.

## 2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1."Buyurtmachi" mazkur shartnomani Bulung'ur tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 20 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2." Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 20 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul hodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

## 3.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi xisobidan tovarlar tashib keltirilganda, yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlarida boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

-tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;

-kamchiliklarni beg'araz bartarf etish;

-yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

-"Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

-Buyurtmachidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

-agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 3-kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1.Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining
5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, etkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2.To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.3. Yetkazib beruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi shartnoma shartlarining buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan

boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1.Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita Iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar Iqtisodiy sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi Iqtisodiy sudda ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## 7. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga vada qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

7.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni

bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

7.5. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

7.6. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 8.4 va 8.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y "26" oktabr 2022 y "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. SHartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| Yetkazib beruvchi | Buyurtmachi |
|---|---|
| Nomi: «SHARIF PROJECT» MChJ<br>Manzili: Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Minchnor MFY<br>Bank nomi: AT Mikrokreditbank Bulung'ur filiali<br>X/R: 20208000105481315001<br>MFO: 00289<br>STIR: 309211933<br>**OKED: 41100**<br>Raxbar: Q.Tog'ayev<br>M.O. (imzo) | Tashkilot nomi: Bulung'ur tuman obodonlashtirish boshqarmasi<br>Manzil: Bulung'ur shaxar Oqtepa ko'chasi 155<br>Tel.: 33-114-15-02<br>STIR kodi: 200730391<br>Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:<br>401722860182067065200110012<br>G'aznachilik bo'linmasi nomi:Bulung'ur tuman G'aznachilik bo'limi<br>Bank nomi:Markaziy Bank Toshkent shaxar XKKM<br>MFO:00014<br>Raxbar A.Mamarasulov<br>M.O. (imzo) |

| | |
|---|---|
| Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| Imzolovchi F.I.SH. | AKBAR MAMARASULOV SAPAROVICH |
| Imzolangan sana | 28.10.2022 18:34 |
| Hujjat kodi | **FC7357426217** |
| Hulosa kodi | **QY3852258025** |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

QY3852258025

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Xizmat ko'rsatish**

**"SHARIF PROJECT" MCHJ Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bilan tuzilgan umumiy summasi 23 529 412 (Yigirma uch million besh yuz yigirma to'qqiz ming to'rt yuz o'n ikki) so'mni tashkil qilgan xizmat ko'rsatish shartnomasi.**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 27.10.2022 yilda kiritilgan.

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining xizmat ko`rsatish shartnomasi to'g'risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Bulung'ur tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**SH.A.SHERMATOV**

27.10.2022

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 162688 на приобретение Услуга по разработке проектно-сметных работ (Элобод махаллааси ички кўчаларини жорий таъмирлаш ва асфалт қопламасига айлантириш лойиха ва экспертиза қилиш)**

Способ проведения электронный

Дата 20.10.2022

Время рассмотрения 20.10.2022 00:32

Закупочная комиссия Булунгур туман Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAMARASULOV AKBAR SAPAROVICH | Boshliq | 1 |
| **Секретарь комиссии** | HAYITMAHATOV ELBEK EGAMBERDI O‘G‘LI | ходим | Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | AZZAMKULOV JOXONGIR SAYDAXMATOVICH | Булим бошлиги | Булунгур туман Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | DUVLANOV ISLAMBEK SUVANKULOVICH | мухандис | Булунгур туман Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | ESHIMOVA NILUFAR ARTIKBOYEVNA | иктисодчи | Булунгур туман Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | NAMOZOV SHUXRAT MANSUROVICH | агроном | Булунгур туман Ободонлаштириш бошкармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 20.10.2022 года № лота 162688.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
|---|---|
| Подробное описание | Услуга по разработке проектно-сметных работ |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 24 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 24 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда иштирок этадиган иштирокчиларнинг гувохномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган иштирокчиларнинг гувохномаси

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 15 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 15 | Экспертная | | |

Критерий №2 Давлат солиқ қўмитасидан қарздорлиги бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Давлат солиқ қўмитасидан қарздорлиги бўйича маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 15 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 15 | Экспертная | | |

Критерий №3 Танловда иштирок этадиган иштирокчиларнинг лойиҳалаш учун лицензияси (йўл учун)

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган иштирокчиларнинг лойиҳалаш учун лицензияси (йўл учун)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 25 | 1 | 25 | Экспертная | | |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 25 | 25 | 25 | Экспертная | | |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 25 | 25 | 25 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 25 | 25.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 25 | Экспертная | | |

Критерий №4 Объектни жойида ўрганилгани тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектни жойида ўрганилгани тўғрисида маълумотнома

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 30 | 1 | 5 | Экспертная | | |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 30 | 30 | 30 | Экспертная | | |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 30 | 30 | 25 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 30 | 30.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 Мутахассис ишчи ходимлар тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Мутахассис ишчи ходимлар тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 15 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 15 | 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda | 15 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 24 000 000.00 | 22 800 000.00 UZS | 22 800 000.00 | 00.00 | 22 800 000.00 | 18.10.2022 16:07:34 | 7.01754 |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 24 000 000.00 | 23 529 412.00 UZS | 23 529 412.00 | 00.00 | 23 529 412.00 | 18.10.2022 17:28:05 | 6.8 |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 24 000 000.00 | 23 280 000.00 UZS | 23 280 000.00 | 00.00 | 23 280 000.00 | 18.10.2022 18:47:28 | 6.87285 |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 24 000 000.00 | 16 000 000.00 UZS | 16 000 000.00 | 00.00 | 16 000 000.00 | 19.10.2022 11:57:38 | 10 |

**Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей**

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **MAROQAND BUNYODKOR QURILISH** | 67.5 | 7.01754 | 74.51754 |
| **SHARIF PROJECT MCHJ** | 90 | 6.8 | 96.8 |
| **"SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ** | 85.5 | 6.87285 | 92.37285 |
| **"MEGATEK INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 72 | 10 | 82 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 162688 от 20.10.2022 года на приобретение Услуга по разработке проектно-сметных работ (Элобод махаллааси ички кўчаларини жорий таъмирлаш ва асфалт қопламасига айлантириш лойиха ва экспертиза қилиш) определила победителем:

SHARIF PROJECT MCHJ
309211933

и резервный исполнитель: "SAM PROJECT BUNYODKOR" МЧЖ (306627639)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAMARASULOV AKBAR SAPAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | AZZAMKULOV JOXONGIR SAYDAXMATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | DUVLANOV ISLAMBEK SUVANKULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ESHIMOVA NILUFAR ARTIKBOYEVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | NAMOZOV SHUXRAT MANSUROVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП